## **1-mashq/ Упражнение 1/ Exercise 1/ अभ्यास 1**

**Berilgan fe'llarni kelasi zamon shakliga keltiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.** Приведите заданные глаголы к форме будущего времени и составьте предложения с их участием. Write given sentences in future form and make sentence with them. दी गई क्रियाओं को भविष्य काल में डाल कर उनके साथ वाक्य बनाइए।

Gapirmoq, bajarmoq, suzmoq, tayyorlamoq, ichmoq, olmoq, qaramoq, yig'lamoq, kutmoq, uchrashmoq, yozmoq, ochmoq, saralamoq, javob bermoq, salomlashmoq, aytmoq, kuylamoq, eshitmoq.




## **2-mashq/ Упражнение 2/ Exercise 2/ अभ्यास 2**

**Berilgan fe'llarni zamonini aniqlab guruhlarga ajrating.** Определите время данных глаголов и распределите их по группам. Find out the tences of verbs and devide into groups. दी गई क्रियाओं को समूहों में विभाजित करें।

Kuyladik, ko'rishyapti, sanamoqchiman, joylashdi, ochmoqchi, chizmoqchi, boshladik, aytay, ovlar, ichdilar, salomlashyapmiz, ko'tarmoqchilar, kiyindi, o'qir, charchadik, yodlayapti, urmoqchisizmi?, sakramoqchi, yozdilar, uxlayapsiz, xayrlashdik, yuvmoqchimas, olmadi, uchyapti, toparsan, boray, kelmoqchi, gaplashdilar.

## **2. PAYT MA'NOSINI IFODALASH YIL FASLLARI, OYLAR/ ВЫРАЖЕНИЕ ВРЕМЕНИ ВРЕМЕНА ГОДА, МЕСЯЦЫ/ EXPRESSION OF TIME SEASONS, MONTHS/ समय का अर्थ व्यक्त करें। मौसम, महीना**





#### 4. HAFTA KUNLARI / ДНИ НЕДЕЛИ / DAYS OF THE WEEK/ सप्तह के दिन

HAFTA KUNLARI / ДНИ НЕДЕЛИ / DAYS OF THE WEEK / सप्तह के दिन			
Dushanba	Понедельник	Monday	सोमवार
Seshanba	Вторник	Tuesday	मंगलवार
Chorshanba	Среда	Wednesday	बुधवार
Payshanba	Четверг	Thursday	गुरुवार
Juma	Пятница	Friday	शुक्रवार
Shanba	Суббота	saturday	शनिवार
Yakshanba	Воскресенье	Sunday	रविवार

#### 3-mashq / Упражнение 3/ Exercice 3/ अभ्यास 3

**Savollarga javob bering. Ответьте на вопросы. Answer the question.  
प्रश्नों के उत्तर दें।**

Bir hafta necha kun?

Dushanba haftaning nechanchi kuni?

Dam olish kuni qachon?

Chorshanbadan oldin qaysi kun keladi?

Haftaning beshinchi kuni qaysi kun?  
Jumadan keyin qaysi kun keladi?

### Topshiriq / Задание / Task / व्यायाम

Matnni davom ettiring. Продолжите текст. Continue text. पाठ जारी रखें ।

### YIL FASLLARI

Bahor fasli juda chiroyli fasl. Bahorda tabiat yug'onadi. Kunlar uzayadi. Hammayoq yashil tusda bo'ladi. Daraxtlar gullaydi. Havo yoqimli bo'ladi. Menga bahor yoqadi.

Yoz .....

### 5. KUN QISMLARI/ ЧАСТИ ДНЯ/ PARTS OF THE DAY/ दिन के भाग

Tong	Утро	Morning	सुबह
Ertalab	Утро	Morning	सुबह
Kunduz	День	Afternoon	दोपहर
Tush	День	Afternoon	दोपहर
Kechqurun	Вечер	Evening	शाम
Tun	Ночь	Night	रात

### Topshiriq / Задание / Task / व्यायाम

Maqollarni yod oling. / Выучите пословицы / Memorize the proverbs /  
कहावतों को याद करें ।

1. Kemaga tushganning joni bir.
2. Yetti o'lchab bir kes.
3. Kelish mehmondan, ketish mezbondan.
4. Uying tor bo'lsa ham, ko'nling keng bo'lsin.
5. Yaxshi bilan yursang etarsan murodga,  
Yomon bilan yursang qolarsan uyatga.
6. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.

### 5. PAYT RAVISHI / НАРЕЧИЯ ВРЕМЕНИ / ADVERBS OF TIME /

समयवाचक क्रिया - विशेषण

Payt ravishlari ham vaqtni ifodalashda faol ishtirok etadi. Odatda gapning boshida keladi va qachon?, qachongacha?, qachondan beri? kabi so‘roqlarga javob beradi.

Наречия времени активно участвуют в выражении времени. Обычно идут в начале предложения и отвечают на вопросы когда? До какого времени? С какого времени?

The adverbs of time are actively involved in expressing time. Usually go at the beginning of a sentence and answer the questions when? Until when? From what time?

समय की अभिव्यक्ति में समय के रूप भी सक्रिय भूमिका निभाते हैं। यह आमतौर पर एक वाक्य की शुरुआत में आता है और कब ?, कब तक ?, कब से? जैसे सवालों के जवाब देते हैं

*Masalan / Например / For example/उदाहरणः*

**Bugun** Saodat darsga kelmadi.

**Yaqinda** universitetimizda katta xalqaro anjuman bo‘ladi.

**Anchadan beri** siz bilan uchrashishni xohlar edim.

**Bu qachongacha** davom etadi?

**Ertalab soat sakkizada** nonushta qilaman.

**Ertaga do‘stlarim** bilan tog‘ga dam olish uchun ketamiz.

#### **4-mashq / упражнение 4/ Exercice 4/ अभ्यास 4**

**Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.** Составьте предложения с использованием данных слов. नीचे दिए गए शब्दों से वाक्य बनाइए।

Ertalab, kecha, bahorda, har doim, bugun, yozda, tunda, saharda, yaqinda, allaqachon, qachondan buyon, tongda, ancha ilgari, azaldan, har doim, kechqurun, kuni bilan.

#### **5-mashq/ упражнение 5/ exercise 5 / अभ्यास 5**

**Quyidagi so‘zlarni va so‘z birikmalarini tarjima qiling.** Переведите следующие слова и словосочетания. Translate the following words and phrases. नीचे दिए गए शब्दों और वाक्यांशों का अनुवाद करें ।

Tongda, har kuni, azaldan, har doim, bugun, kunduzi, avval, kechasi, ertalab, hozir, ilgari, bultur, yaqinda, kechagina, kundan-kunga, o‘tgan yili, har safar, anchadan buyon.

## **6-mashq/ Упражнение 6/ Exercise 6/ अभ्यास 6**

**Gaplarni tarjima qiling va vaqtini ifogalanishiga e'tibor bering.**  
Переведите предложения и обратите внимание на выражение времени.  
**Translate the sentences and pay attention to the expression of time.** वाक्यों का  
अनुवाद करें और समय पर ध्यान दें।

1. Tongda qushlarning ovozidan uyg'ondim.
2. Ertaga albatta, uchrashamiz.
3. Har doimgidek kech qoldingiz.
4. O'tgan oyda Xitoyda xizmat safarida edim.
5. Doim shunday yaxshi kayfiyatda bo'lishingizni xohlaymiz.
6. Har kuni ertak tinglab uxlayman.
7. Universitet oshxonasida doim mazali taomlar bo'ladi.
8. Bugun juda charchadim.

## **7- mashq / Упражнение 7 / Exercise 7 / अभ्यास 7**

**Savollar javob yozing.** Напишите ответы на вопросы. Answer the questions. प्रश्नों के उत्तर लिखें।

1. Qanday yil fasllarini bilasiz? ...
2. Bir yilda qanday oylar bor? ...
3. Yoz oylari qaysilar?.....
4. Bir oyda necha hafta bor? ..
5. Haftada necha kun bor? ...
6. Hafta kunlarining nomlarini bilasizmi? ...
7. Qaysi kunlari dam olasiz? ....
8. Bir yilda nechta fasl bor? .....
9. Kun qismlarini nomlang?
10. Odatda hamma odamlar qachon uxlaydilar?

## **Topshiriq / Задание/ Task / व्यायाम**

**Rasmlarda ifodalangan paytni aniqlang. Определение изображенное на картинках время. Determine the time shown in the pictures. चित्रों में दर्शाया गया समय निर्धारित करें।**



**Topshiriq / Задание/ Task / व्यायाम**

**O‘zingizga yoqqan fasl haqida matn tuzing. Unda payt ravishlaridan foydalaning.** Составьте текст про ваше любимое время года. Используйте наречия времени. Compose a text about your favorite season. Use adverbs of the time. अपनी पसंद के मौसम के बारे में एक पाठ लिखें। फिर समय रूपों का उपयोग करें।

### **Topshiriq / Задание/ Task / व्यायाम**

**Yod oling. Выучите. Learn by heart. याद कीजिये ।.**

tongda – утром – in the morning – **субҳ** को

ertadan so‘ng – послезавтра – the day after tomorrow – **पर्से**

azonda – на заре – at dawn – **सुबह सवेरा**

allaqachon – давно – long ago - **काफी समय पहले**

azaldan – с древних времен - from ancient times - **प्राचीन काल से**

bu yilda – в этом году – this year – **इस साल**

bultur – в прошлом году – last year – **पिछले साल**

har yili – каждый год – every year – **हर साल**

kelgusida – в будущем – in future – **भविष्य में**

namozshom – под вечер - towards evening – **शाम**

o‘sha kun – тот день – that day – **उस दिन**

o‘shanda – тогда – then - **तब**

o‘shandan buyon – с тех пор – since then - **के बाद से**

### **Topshiriq/ Задание/ Task/ व्यायाम**

**Quyidagi yil fasllari bilan bog‘liq maqollarni yod oling.** Выучите следующие пословицы, связанные с временами года. Memorize following proverbs, connected with seasons. **निम्नलिखित मौसमी लेखों को याद करें।**

1. Kun g‘amini sahar ye, Yil faslini bahor ye.
2. Bahorgi harakat – kuzgi barakat.
3. Yozda jarohat ko‘rsang, Qishda rohat ko‘rasan.
4. Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, Mezondan so‘ng yoz bo‘lmas.

5. Yozda yopinchig‘ing tashlama, Qishda o‘zing bilasan.
6. G‘oz kelgani – yoz kelgani.

### **8-mashq / Упражнение 8 / Exercice 8/ अभ्यास 8**

**Matnni o‘qing va savollarga javob bering. Matn asosida o‘z ish haftangiz haqida so‘zlab bering.** Прочитайте текст и ответьте на вопросы. **Расскажите о вашей рабочей неделе, опираясь на текст.** Read the text and answer the question. **Tell about your weekday based on the text.** वाक्यांश को पढ़ो और प्रश्नों के जवाब दो। पाठ के आधार पर, हमें अपने कार्य सप्ताह के बारे में बताएं।

Men har kuni universitetga darsga boraman. Haftada 6 kun, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba kunlari 6 soatdan o‘qiyman. Yakshanbada esa dam olaman. Dushanba, payshanba kunlari shaxmat bilan shug‘ullanaman. Seshanba, Chorshanba, shanba kunlari suv havzasiga suzishga boraman. Juma kuni esa darslardan keyin buvimnikiga boraman. Yakshanbada oilam bilan birga dam olaman. Uy ishlarida yordam beraman, bozordan oziq-ovaqatlar xarid qilaman. Kechqurunlari esa televizor ko‘raman, kitob o‘qiyman yoki do‘stlarim bilan uchrashaman.

1. Qachon universitetga darsga borasan?
2. Haftada necha kun dars bo‘ladi? Qaysi kunlari?
3. Qacon dam olasan?
4. Shaxmat bilan qachon shug‘ullanasan?
5. Haftaning qaysi kunlari suv havzasiga borasan?
6. Buvningnikiga qachon borasan?
7. Yakshnba kuni nima qilasan?

### **9-Mashq/ Упражнение 9/ Exercice 9/ अभ्यास 9**

**Berilgan so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib mant tuzing va nomlang.** Составьте текст, используя данное слова и словосочетания. **Озоглавте его.** Use the words and the phrases given below, make a text by naming it. दिए गए शब्दों और वाक्यांशों का उपयोग करके एक टेक्स्ट बनाएं और नाम दें।

Chiroyli, o'yin, bahavo, ifori taraladi, bolalar, menga, mayin shamol esadi, kiyimlarda, tabiat uyg'onadi. Kunlar qisqa, sovuq, ta'til, mazza qiladilar, qalin, yoqadi.

### 10-Mashq/ Упражнение 10/ Exercice 10/ अभ्यास 10

**Matnni tarjima qiling. Переведите текст. Translate text. पाठ का अनुवाद करें।**

#### YOZ

Yoz fasli bahor va kuz fasllarining orasida joylashgan bo'lib, eng issiq fasl hisoblanadi. Iyun, iyul, avgust oylari yoz hisoblanadi. Xalq orasida yilning issiq yarmi yoz deyiladi. Yoz fasli inson organizmi uchun eng kerakli fasllardan biridir. Yoz fasli, inson sog'lig'i uchun juda zarur bo'lgan D vitaminiga boydir. Chunki D vitamini eng yaxshi quyosh nurlari bilan insonga o'tadi. Meva, sabzavot va boshqa o'simliklar ham yoz faslida pisha boshlaydi. O'zbekistonda mazali va foydali mevalar juda ko'p. Yozda bolalar va talabalar uchun ta'til. Ta'til kunlari hamma mazza qilib salqin bog'larda, tog'lardagi oromgohlarda dam oladi.

Orasida- между - के बीच

Joylashgan – находится - स्थित है

Hisoblanadi – считается - विचार करना

Inson – человек - मानव

Kerakli – нужный - आवश्यक

O'tadi – переходить/ передаётся - गुज़रना

Boy –богатый - धनी

Quyosh nurlari – солнечные лучи - सूरज की किरण

Pisha boshlaydi –поспевают - पकना

Salqin –прохладный - ठंडा

Bog‘ – сад/ парк - बाग

Tog‘ –гора - पहाड़

Boshqa – другой - दूसरा

O'simlik – растение - पौधा

Oromgoh – лагерь - आरामघर

## 8-DARS / УРОК 8 LESSON 8/ 8 DERS/ 8 पाठ

### 1. SOAT NECHA?

**КОТОРЫЙ ЧАС? WHAT TIME IS IT? कितने बजे?**



**O‘zbek tilida vaqt soatlarda quyidagicha ifodalanadi.** В узбекском языке время выражается в часах следующим образом Expression of time in uzbek. **Узбеки में समय इस प्रकार व्यक्त किया जाता है।**

**1- qolip: \_\_\_\_\_ + dan\_\_\_\_\_ daqiqa o‘tdi.**

Birdan besh daqiqa o‘tdi.

Beshdan o‘n daqiqa o‘tdi.

Uchdan besh daqiqa o‘tdi .

O‘ndan besh daqiqa o‘tdi.

O‘n birdan yigirma besh daqiqa o‘tdi.

**2- qolip : \_\_\_\_\_ + ta kam\_\_\_\_bo‘ldi**

Beshta kam ikki bo‘ldi. O‘nta

kam uch bo‘ldi.

Beshta kam o‘n ikki bo‘ldi.

Yigirmata kam bir bo‘ldi.

O‘n beshta kam olti bo‘ldi.

**3- qolip: Soat\_\_\_\_\_yarim bo‘ldi**

Soat ikki yarim bo‘ldi.

Soat bir yarim bo‘ldi.

Soat sakkiz yarim bo‘ldi.


Soat o‘n ikki yarim bo‘ldi.

**4- qolip: Soat roppa rosa\_\_\_\_\_ bo‘ldi**

Soat roppa rosa besh bo'ldi  
 Soat roppa rosa uch bo'ldi  
 Soat roppa rosa yetti bo'ldi  
 Soat roppa rosa olti bo'ldi  
 Soat roppa rosa o'n ikki bo'ldi

### **1-Mashq/ Упражнение 1/ Exercise 1/ अभ्यास 1**

**Aniq vaqtini ayting. Скажите точное время. Tell the time. सही समय बोलो ।**



MathATube.com

### **2-Mashq/ Упражнение 2/ Exercise 2/ अभ्यास 2**

**Dialogni o'qing va davom ettiring. Прочитайте и продолжите диалог. Read dialog and continue. संवाद पढ़ें और जारी रखें ।**

- Hozir soat necha (nechi) bo'ldi?
- 8 dan yigirma daqiqa o'tdi. (8. 20)
- Bugun qaysi kun?
- Dushanba.
- Dars qachon tugaydi?
- Soat ikkida. (14. 00)
- Uyga soat nechada ketasiz?

- 2 dan o'n besh daqqa o'tganda. (14.15)


### 3-Mashq/ Упражнение 3/ Exercise 3/ अभ्यास 3

**O'qing va savollarga javob bering.** Прочитайте и ответьте на вопросы: Read and answer the question. पढ़ें और सवालों के जवाब दें।

1. O'zbekistonga qachon keldingiz?
2. Hozir soat nechchi?
3. Darslaringiz soat nechada boshlanadi?
4. Bars necha soat bo'ladi?
5. Soat nechada universitetga borasiz?
6. Odatda soat nechada ovqatlanasiz?
7. Necha soat dars tayyorlaysiz?
8. Qachon sizga qo'ng'iroq qilsam bo'ladi?

### 4-Mashq / упражнение 4/ Exercise 4 / अभ्यास 4

**Rasmga qarab, matn tuzing.** Составьте текст, посмотрев на картинку.  
Make the text based on the picture. चित्र को देखें और पाठ लिखें



### Topshiriq/ Задание/ Task / व्यायाम

**Kun tartibingiz haqida matn tuzing.** Составьте текст о распорядке дня. Make text about your day. अपने दिन के बारे में टेक्स्ट बनाएं।

**3. PAYTNI IFODALANISHI USULLARI BILAN TANISHING**  
**ПОЗНАКОМЬТЕСЬ СО СПОСОБАМИ ВЫРАЖЕНИЯ**  
**ВРЕМЕНИ. GET TO KNOW ABOUT METHOD OF TIME**  
**EXPRESSIONS.** भुगतान अभिव्यक्ति के तरीकों को जानें

-dan oldin;	до ...	before	पहले
-dan keyin;	после ...	after	के बाद
-dan beri;	с того времени	since	जबसे

**Masalan / Например / For example / उदाहरण:**

*Darsdan oldin bu haqda gaplashgandik.*

*Мы говорили об этом перед уроком.*

*We have spoken about it before the lesson.*

हमने कक्षा से पहले इस बारे में बात की थी ।

*Uchrashuvdan keyin hamma talabalar yotoqxonaga qaytdilar.*

*После встречи все студенты вернулись в общежитие.*

*After meeting all students returned to apartment.*

मिलन के बाद सभी छात्र छात्रावास में लौट आए ।

*Qachondan beri siz bilan ko 'rishmadik.*

*С каких пор мы с вами не виделись.*

*I have not seen you for ages*

हम आप से दूर समय से नहीं मिला है ।

Fe'l	-gan	-im -ing -i -imiz -ingiz -lari	-da
------	------	---	-----

**Masalan / Например / For example / उदाहरण**

Universitetdan kel+gan+im+da soat 5 edi.

Когда я приехал из университета, было 5 часов вечера.

When I came home from university, it was 5 o'clock.

जब मैं विश्वविद्यालय से लौटा तब 5 बज रहे थे।

Mashina haydayotganda juda ehtiyot bo'lish kerak.

Вы должны быть очень осторожным при вождении автомобиля.

When driving car , they have to be careful.

कार चलाते समय आपको बेहद सावधान रहने की जरूरत है।

Zarina uyiga qaytganida qo'ng'iroq qilaman.

Позвоню, когда Зарина вернется домой.

As soon as Zarina comes home I will call you.

जरीना के घर आने पर मैं फोन करूँगा।

Men charchaganimda tez uxbal qolaman.

Я быстро засыпаю, когда устаю.

When I feel tired I sleep fast.

जब मैं थक जाता हूं तो जल्दी सो जाता हूं।

### **5-Mashq. Упражнение 5/ Exercise 5 / अभ्यास 5**

**Berilgan so'z va so'z birikmalari asosida gaplar tuzing.** Составьте предложения на основе заданных слов и словосочетаний. Make sentences based on given words and phrases. दिए गए शब्दों और वाक्यांशों के आधार पर वाक्य बनाइए।

Bugun, chorshanba, kelasi haftada, to'rt kun, har doin, dam olish kuni, soat, har hafta, kechqurun, kuzda, nonushtadan so'ng, tongda, oxirida, boshida, Yarim tunda, 3 kun oldin.

### **6-Mashq. упражнение 6/ Exercise 6/ अभ्यास 6**

**O'qing va savollarga javob bering.** Прочитайте и ответьте на вопросы. Read and answer questions. पढ़ें और सवालों के जवाब दें।

1. O'zbekistonga qachon keldingiz?
2. Soat nechada uyga qaytdingiz?
2. Uchrasuv necha soat bo'ldi?
3. Yaponiyadan O'zbekistongacha samolyotda necha soat uchasiz?
4. Qancha vaqt band bo'lasiz?
5. Hozir soat necha bo'ldi?
6. Darslaringiz qachon tugaydi?

7. Menga qancha vaqt ajrata olasiz?
8. Odatda soat nechada uxlaysiz?

### Topshiriq. Задание. Task. कार्य

Tug‘ulgan kuningizni qanday o‘tkazganingiz haqida matn tuzing.  
Составьте текст о том, как провели саоё день рождения. Make santances how you have celebrated your birthday. आपने अपना जन्मदिन कैसे बिताया, इस बारे में एक पाठ लिखें।

### BILIMLARINGIZNI SINAB KO‘RING ПРОВЕРЬТЕ СВОИ ЗНАНИЯ TEST YOUR KNOWLADGE अपने ज्ञान का परीक्षण करें

#### 1. Ko‘plikdagi so‘zlar keltirilgan qatorni aniqlang.

- a. oyna, kitob, gul, men.
- b. men, arra, qalam.
- c. biz, bolalar, kitoblar, gullar.
- d. sen, bolalar, kitob, gullar.

#### 2. So‘z birikmani davom ettiring – *Tanishganidan* ...

- a. Arzimaydi
- b. Xursandman
- c. Boshlaymiz
- d. Keling

#### 3. “*Iltimos*” shaklini toping.

- a. Tushunarli
- b. Afsus
- c. Kirish mumkinmi
- d. Keldim

#### 4. Tog‘ri savol bering – *U odam* ...

- a. Kim?
- b. Nima?
- c. Qancha?
- d. Qayer?

#### 5. Nuqta o‘rniga mos so ‘zni qo‘ying - *Mening ... Aziza*

- a. Yoshim
- b. Qo‘lim
- c. Ismim
- d. Qalamim

**7. Nuqtalarni o‘rniga mos qo‘sishimchani qo‘ying.**

*Mening onam 35 yosh...*

- a. -ga
- b. -da
- c. -ning
- d. -dan

**7. “Inkor” shaklini toping – *Bu daraxtmi* ?**

- a. Ha, bu daraxt.
- b. Yo‘q, bu daraxt emas.
- c. Bilmadim, men o‘ylashimcha daraxt.
- d. Balkim daraxtdir.

**8. Ko‘plikdagi olmoshni toping .**

- a. Siz
- b. Uning
- c. Meniki
- d. Unda

**9. Faqat ranglar berilgan qatorni aniqlang.**

- a. Issiq, sovuq, qora, ochiq
- b. Qizil, yashil, pushti, ko‘k
- c. Oq, yopiq, ochiq, ko‘k
- d. Ochiq, qora, mazali,yashil

**10. Mos qo‘sishimchani nuqtalar o‘rniga qo‘ying – *Biz talaba...***

- a. -siz
- b. -san
- c. -miz
- d. -ga

**11. “Inkor” shaklini toping.**

- a. Men talabaman
- b. U kelmadi
- c. Men shu yerdaman
- d. Siz qayerdasiz

**12. “Tartib son ” berilgan qatorni topining.**

- a. Beshinchi
- b. bitta
- c. olti
- d. sakkiz nafar

**13. Tog‘ri javobni toping. “*Sen qayerliksan?*”**

- a. Samarqandda
- b. Samarqandga

- c. Samarqandlik
- d. Samarqanddan

**14. Savolga javob bering. Kursi (*Stul*) qayerda?**

- a. Xonada
- b. Xonaning
- c. Xonacha
- d. Xonamiz

**15. Bu men... uyim. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘sishimchani qo‘ying.**

- a. -ing
- b. -da
- c. -iki
- d. -ga

**16. Savol shakilni tuzing “*Oyilangiz bor...?*”**

- a. -ki
- b. -mi
- c. –chi
- d. -da

**17. “*O‘ng tomonda*” so‘z birikmasiga antonim toping.**

- a. Ust tomonda
- b. Orqa tomonda
- c. chap tomonda
- d. qaysi tomonda

**19. “*Sanoq*” son keltirilgan qatorni toping.**

- a. yetti
- b. birinchi
- c. oltita
- d. uch dona

**19. Tog‘ri javob bering “*Sen qayerga ketyapsan?*”**

- a. uyda
- b. uyga
- c. uyla
- d. uydan

**20. “*O‘n ikki*”dan keyin qanday son keladi?**

- a. O‘n uch
- b. O‘n to‘rt
- c. O‘n to‘qqiz
- d. O‘n olti

**21. *U nima uchun kutubxonaga bordi ?* Savolga javob bering.**

- a. U kitob olishi kerak edi.

- b. U u yerda uxlaydi.
- c. Senga xat yozdi.
- d. Faqat yotish uchun.

**22 Fe'lning o'tgan zamon shaklini toping.**

- a. U kecha meni kutgan edi.
- b. U meni hozir kutayotgan bo'lsa kerak.
- c. U meni kutsa kerak.
- d. U meni kutayotgan bo'lsa kerak.

**23. "Haydovchi" qanday savol beradi?**

- a. Qayeringiz og'riyapti?
- b. Qayerdasiz?
- c. Qayerga borasiz?
- d. Qayerdan bilasiz?

**24. Fe'lning o'tgan zamon shaklini toping.**

- a. Men darsga ketayapman.
- b. Men kecha darsga bordim.
- c. Men darsda o'tiribman.
- d. Men darsga ketmoqchiman.

**25. Tog'ri tuzilgan gapni aniqlang.**

- a. Men ertaga ketmasam kerak.
- b. Men kecha ketayapman.
- c. Men bugun ketganman.
- d. Men kecha ketamoqchiman

**26. "So'roq" shaklini toping .**

- a. Siz kelasiz...
- b. Siz keldizmi...
- c. Siz keling...
- d. Siz kelaman...

**27. Xatoni toping.**

- a. Uch kitoblar.
- b. Ikkita olma
- c. Besh nafar talaba.
- d. O'ninch qavat.

**28. Gapni to'ldiring Toshkent – katta va chiroylı ...**

- a. Ko'cha
- b. Shahar
- c. Maydon
- d. Uy

**29. To'g'ri qo'shimchani qo'ying. Siz olmani yaxshi ko'ra...mi?**

- a. -man
- b. -siz
- c. -miz
- d. -san

**30. To‘g‘ri so‘z qo‘ying. Juda charchadim, lekin ... dars qilishim kerak.**

- a. baribir
- b. faqat
- c. ham
- d. agar

**31. Hozirgi zamon fe’li berilgan qatorni aniqlang.**

- a. Darsda bolalar yozayaptilar.
- b. Havo juda issiq.
- c. Bu kitob juda qimmat.
- d. Bu kitob juda qiziq.

**32. Gapni to‘ldiring: Kechirasiz, xonaga kirish ....?**

- a. Mumkinmi
- b. Boraymi
- c. Qaraymi
- d. Olaymi

**33. “Inkor” shaklidagi gapni toping.**

- a. U shoshiladi
- b. U shoshayotgan edi.
- c. U shoshildi.
- d. U shoshmadi.

**34. “Darak” gapni toping.**

- a. Lola mashinani hayday oladimi?
- b. Lola mashinani haydaydi.
- c. Lola mashinani haydama.
- d. Lola mashinani haydamoq -chi ?!

**35. “Payshanba”dan keyin qaysi hafta kuni keladi?**

- a. Chorshanba
- b. Seshanba
- c. Juma
- d. Dushanba

**36. Qaysi oylari yoz oylari?**

- a. Dekabr, yanvar, fevral
- b. Mart, aprel, may
- c. Iyun, iyul, avgust
- d. Dekabr, iyun, avgust

**37. To‘g‘ri qo‘s Shimchani qo‘llang. Meni darsim 8 ... 1 ... bo‘ladi.**

- a. dan, – gacha
- b. dan, – o‘tdi
- c. dan ,– kam
- d. dan, – ning

**38. To‘g‘ri qo‘s Shimcha qo‘ying. Agar ertaga kel...giz , birga bozorga bora...**

- a. san – miz
- b. giz – miz
- c. ma – san
- d. san – dik

**39. “Shirin” so‘ziga antonim toping .**

- a. Achchiq
- b. Mazali
- c. Sovuq
- d. Kir

**40. Nuqtalar o‘rniga to‘ldiring: Kecha.. qaraganda bugun issiq...**

- a. da – ga
- b. dan – roq
- c. ga – roq
- d. ning –sa

**41. “Hodisa” so‘ziga sinonim so‘zni toping.**

- a. Maqsad
- b. Ishonch
- c. Shamol
- d. Voqea

**42. “Uzun” so‘zini antonimini toping.**

- a. Kalta
- b. Baland
- c. Sekin
- d. Kech

**43. Nuqtalar o‘ni to‘ldiring. Men har kuni mакtabga ....**

- a. Sakrayman
- b. Yotaman
- c. Qatnayman
- d. Topaman

**44. “Shifokor” so‘zini sinonimini toping.**

- a. Quruvchi
- b. Tabib
- c. Uchuvchi

d. Tadbirkor

**45. Savolga to‘g‘ri javob bering. *Kitob qayerda?***

- a. Javon
- b. Javoniki
- c. Javondan
- d. Javonda

**46. Gapni to‘ldiring. Men Toshkentda ...**

- a. Kelish
- b. Sakrayman
- c. Yashayman
- d. Yashash

**47. “Askar” so‘zini sinonimini toping..**

- a. Tabib
- b. Haydovchi
- c. Quruvchi
- d. Harbiy

**48. Baland so‘zini antonimini toping.**

- a. Past
- b. Sekin
- c. Uzun
- d. Kalta

**49. O‘tgan zamon fe’lini toping.**

- a. Yasadim
- b. Yugurasan
- c. Sakrash
- d. O‘qimoq

**50. Hozirgi zamon fe’lini toping.**

- a. Yasadim
- b. Yugurasan
- c. Sakrash
- d. Eshityapman

**51. Gapni to‘ldiring. Men kitobni ...**

- a. O‘qish
- b. O‘qishga
- c. O‘qiyapman
- d. O‘qildi

**52. Kelasi zamon fe’lini toping?**

- a. O‘qish
- b. O‘qidim

- c. O‘qimoq
- d. O‘qiymen

**53. Faqat sifat berilgan qatorni toping.**

- a. Odam, Chirolyi, Fil
- b. Baland, Past, Dumoloq
- c. Semiz, Baland, Qush
- d. Devor, Qush, Dam

**54. Faqat ijobiy sifat berilgan qatorni toping.**

- a. Yaxshi, Chirolyi, Betakror
- b. Semiz, Novcha, Qo‘pol
- c. Yomon, Zo‘r, Hushmuomala
- d. Oqko‘ngil, Harakatchan, Qurumsoq

**55. So‘roq gap qanday tuziladi?**

- a. His-hayajon ohangi va –mas qo‘shimchasi yordamida.
- b. Ohang, -mi qo‘shimchasi va so‘roq so‘zlari yordamida
- c. Ohang, fe’lning inkor shakli va –ni qo‘shimchasi yordamida.
- d. Ohang, kishilik olmoshi va so‘roq so‘zlari yordamida

**56. Kishilik olmoshi ishtirok etgan gapni toping.**

- a. Mening ismim Jalolbek
- b. Anvar do‘sini juda sog‘indi
- c. Kino tugadi.
- d. Qalamni uchi sinay deb turibdi.

**7. “Baxt” so‘zining antonimini toping.**

- a. Chiroy
- b. Go‘zllik
- c. Muhabbat
- d. Baxtsizlik

**58. Egalik kategoriyasi qo‘shimchasi berilgan qatorni toping.**

- a. –im
- b. –lar
- c. –dan
- d. –ni

**59. Nuqtalar o‘rniga kerakli kelishik qo‘shimchasini qo‘ying.**

*Tinchlik... qadriga yetish hamma... burchidir.*

- a. –ga;-ning
- b. –ni;-ning
- c. –ning;-ga
- d. –da;-ni

**60. Qavm-qarindosh nomlari berilgan qatorni toping .**

- a. Haydovchi, rassom, onam.
- b. Aka, hola, singil, amaki.
- c. O‘qituvchi, ota, talaba, quruvchi
- d. O‘quvchi, odam, o‘t o‘chiruvchi

**61. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘sishimchani qo‘ying. *O‘zbekistonga hindiy tilidan dars ber... keldim.***

- a. -gani
- b. -gan
- c. -gacha
- d. -ning

**62. Shaxs otlari ishtirok etgan so‘z birikmalarni toping.**

- a. Fidoyi o‘qituvchi
- b. London shahri
- c. Katta bog‘
- d. Qiziq kitob

**63. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘sishimcha qo‘ying. *Sinf ... larim bilan kim ko‘p badiiy kitob o‘qish musobaqasini o‘ynayapmiz.***

- a. –bon
- b. –kor
- c. –dosh
- d. –paz

**64. Bir Vatanda yashaydiganlar ... deb ataladi.**

- a. Qo‘sni
- b. Vatandosh
- c. Sirdosh
- d. Mahalladosh

**65. Berilgan kasbni egasi qayerda ishlaydi? *Binokor.***

- a. Oshxonada
- b. Maktabda
- c. Shifoxonada
- d. Qurilishda

**66. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. *Dalalarda tinmay mehnat qiladilar....., kasallarni davolaydilar.....***

- a. dehqonlar, shifokorlar.
- b. tarbiyachilar, kosmonavt.
- c. shifokorlar, haydovchi.
- d. paxtakorlar, haydovchi.

**67. “O‘qituvchi” so‘ziga sinonim bo‘la oladigan so‘z berilgan qatorni toping.**

- a. Zargar

- b. Shifokor
- c. Karvon
- d. Ustoz

**68. –kor qo‘sishimchasi qaysi qatordagi so‘zga to‘g‘ri keladi?**

- a. Basta...
- b. Etik...
- c. Osh...
- d. Bog‘...

**69. Nuqtalar o‘rniga qo‘sishimchalaridan mosini qo‘ying.**

*Maktabimizda adabiyot... olimlar bilan uchrashuv uyushtirildi.*

- a. –dor
- b. –dosh
- c. –shunos
- d. –bon

**70. “Kamtar” so‘zini antonimini toping.**

- a. Qo‘pol
- b. Kamgap
- c. Manman
- d. Chaqqon

**71. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. *Kozim juda ... bola.***

- a. Aqlli
- b. O‘qish
- c. Eng
- d. Fazilat

**72. Faqat salbiy ma’no kasb etgan sifatlar berilgan qatorni toping.**

- a. Semiz, qurumsoq, qo‘pol.
- b. Chirolyi, axmoq, telba.
- c. Aqlli, ishonchsiz, ma’suliyatsiz.
- d. Betakror, yaxshi, kamtar.

**73. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. *Men bugun olma ... .***

- a. Yedim
- b. Yedi
- c. Yemoqchi
- d. Yedik

**74. Xatoni toping.**

- a. Men bugun darsga bormayman.
- b. Men bugun darsga bormadim.
- c. Men bugun darsga boraman.
- d. Men bugun darsga borganmiz.

**75. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. *Biz O‘zbekistonga.....keldik.***

- a. ilk bor
- b. ko‘rib
- c. qabab
- d. chopib

**76. Gapga to‘g‘ri savolni tanlang. *Kecha uni do‘konda ko‘rdim.***

- a. Qayerga?
- b. Qayerda?
- c. Qayergacha?
- d. Qayerdan?

**77. Gapni to‘ldiring. *Sen .... desang o‘sha yerga boramiz.***

- a. Qayerga
- b. Joyga
- c. Tepaga
- d. Qachon

**78. To‘g‘ri qo‘sishimchani tanlang. *Metro oldi... gullar sotiladi.***

- a. -dan
- b. -ga
- c. -ning
- d. -da

**79. To‘g‘ri javobni tanlang. *Dam olish kuniqa qayerga boramiz?***

- a. Muzlatgichni ichida.
- b. Hiyobonda .
- c. Arg‘imchoq uchgani .
- d. U bugun kelmadi-ku.

**80. Gapga to‘g‘ri savolni tanlang. *Sen aytayotgan joyni bilmayman.***

- a. Qayerni?
- b. Qayerga?
- c. Qayerdan?
- d. Qani?

**81. O‘rin ma’nosini anglatuvchi so‘zlar keltirilgan qatorini tanlang.**

- a. ko‘p, tez, do‘stona.
- b. o‘rtada, pastda, shu yerga.
- c. biroz, harzamon, ozmuncha.
- d. asta-asta, tez-tez.

**82. To‘g‘ri tuzilgan gapni tanlang. *Yo‘ldan| sen| bormayman |yuradigan.***

- a. Bormayman sen yo‘ldan yuradigan.
- b. Yuradigan sen yo‘ldan bormayman.
- c. Sen yuradigan yo‘ldan bormayman.

d. Bormayman sen yuradigan yo‘ldan.

**83. O‘rin-joy ma’nosini ifodalaydigan so‘zlar qatorini tanlang.**

- a. Tag, ust, orqa.
- b. Bilan, uchun, kabi.
- c. Sari, sayin, uzra.
- d. Singari, qadar,tufayli.

**84. O‘rin-joy ma’nosini ifodalaydigan gapni toping.**

- a. Qani endi xohlagan o‘qishimga kirsam.
- b. Dadil harakat qil!
- c. Nahotki, bu siz bo‘lsangiz!
- d. Biz kecha borgan joyimizni hech kim bilmasligi kerak!

**85. Gapga to‘g‘ri savolni tanlang. *Sen bayramga bormaysan.***

- a. Qayerga?
- b. Qachon?
- c. Nimaga?
- d. Qayerdan?

**86. Gapni to‘ldiring. *Biz..... birga kino... bormoqchi....***

- a. - lar, - ga, - miz.
- b. -lar,-da,-lar.
- c. - li, - ga, - miz
- d. - ar, - ga, - miz

**87. “*Uy vazifa*”si so‘z birikmaga sinonim bo‘lgan birikmani toping.**

- a. Uy ishi
- b. Uy qilish
- c. Uy bekasi
- d. Uy qamog‘i

**88. Ijobiy sifatlar keltirilgan qatorni toping.**

- a. yaxshi, chiroqli, joziba,yoqimli.
- b. yoqimli, sho‘r, katta, yaxshi.
- c. yomon, xunuk, sergap, antiqa.
- d. ajoyib, yoqimli, chiroqli, mayin.

**89. Salbiy sifatlar keltirilgan qatorni toping.**

- a. yaxshi, chiroqli, joziba, yoqimli.
- b. yoqimli, sho‘r, katta, yaxshi.
- c. yomon, xunuk, sergap, qo‘rqinchli.
- d. ajoyib, yoqimli, chiroqli, mayin.

**90. Maza-tam ma’nosini ifodalovchi sifatlarni toping.**

- a. yaxshi, issiq, oq, yoqimli.
- b. yoqimli, oq, sho‘r, yaxshi.

- c. yomon, achchiq, sergap, shirin.
- d. achchiq, shirin, sho‘r, mazali.

**91. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying. *Kecha ....birga kinoga.....***

- a. hamma, ko‘rdi.
- b. hammamiz, qildi.
- c. hammamiz, bordik.
- d. hammamiz, qaradik.

**92. To‘g‘ri javobni toping. *Bu qanday kitob ekan?***

- a. Bu juda qiziqarli kitob ekan.
- b. Bu kitobda juda qiziqarli ma’lumotlar bor ekan.
- c. Men juda qiqiqarli kitob o‘qidim.
- d. Kutubxonada juda qiziqarli kitob bor ekan.

**93. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring. Men ..... sinfda o‘qiyman.**

- a. To‘qqiz
- b. To‘qqizinchi
- c. To‘qqizta
- d. To‘qqizda

**94. Yigirma ikki sonidan keyin qanday son keladi?**

- a. Yigirma to‘rt
- b. Yigirma uch
- c. Yigirma besh
- d. O‘ttiz

**95. So‘roqqa to‘g‘ri javobni toping. *Anvar soat nechada uyga qaytdi?***

- a. Anvar uyga qaytmadi.
- b. Anvar uyga juda kech qaytdi.
- c. Anvar soat oltida uyga qaytdi.
- d. Anvar soat oltida uyga qaytmoqchi.

**96. Davom ettiring. *Bugun ukamdan yaxshi.....***

- a. xabar keldi
- b. kitob keldi
- c. so‘z keldi
- d. maqsad keldi

**97. Xatoni toping.**

- a. Bugun dars tayyorladim.
- b. Bugunda dars tayyorladim.
- b. Bugunga dars tayyorladim.
- b. Bugundan dars tayyorladim.

**98. Inkor shakldagi so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.**

- a. kitob, yaxshi, qiziq.

- b. yoq, bor, menda.
- c. yoq, olma, qarama.
- d. olma, nok, shaftoli.

**99. To‘g‘ri tuzilgan gapni toping.**

- a. Bu juda qiziqarli kitob.
- b. Menda juda qiziqarli kitob oldim.
- c. Menda juda qiziqarli kitob kerak emas.
- d. Menning juda qiziqarli kitob kerak .

**100. Faqat birlikdagi so‘zlar keltirilgan qatorni aniqlang.**

- a. biz, siz, ular.
- b. kitob, soat, ot.
- c. ot, biz, kitob.
- d. siz, soat, kitob.

**O‘ZBEKISTON BO‘YLAB SAYOHAT  
TOSHKENT**



**SHAHAR MANZARASI**



**“BUNYODKOR” STADIONI**



**“OLIY MAJLIS”**



**“HILTON” mehmonxonasi**



**“AMIR TEMUR” muzeyi**



**KECHKI SHAHAR MANZARASI**



**TOSHKENT TELEMINORASI**



## “O‘ZBEKISTON” MEHMONXONASI

**Toshkent** — Markaziy Osiyoning yirik qadimiy shaharlaridan biri, O‘zbekiston Respublikasining poytaxti. O‘rta Osiyoning ulkan sanoat-transport chorrahasi va madaniyat markazlaridan biri. Mamlakatning shimoli-sharqi qismida, Tyanshan tog‘lari etaklarida, 440-480 m tepalikda, Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan. Aholisi 2 485 900 kishini tashkil etadi (2020). Shahar Qozog‘istonning chegarasiga yaqin joylashgan. Maydoni 334,8 km<sup>2</sup>.

2007-yili Toshkent Islom madaniyati markazi, deb e’lon qilindi. Bunga sabab sifatida shaharda ko‘plab tarixiy islomiy inshoatlar va Toshkent Islom Universiteti borligi, shahar madaniy tarixi islomiy an’analar bilan bog‘langanlidir. 2009-yilda Toshkentning 2200-yilligi nishonlandi. Bu munosabat bilan shahar infra va transport tizimi yangilandi.


Toshkent shahri O‘zbekistonning ma’muriy markazi sanaladi. Toshkent hamisha navqiron shahar. Har yili dunyoning har chekkasidan minglab sayyoohlar tashrif buyuradilar. Sharar qiyofasi kundan kun o‘zgarib, ko‘rkamlashib bormoqda. Yangi zamonaviy binolar, bog‘lar, metro beketlari, teatr va muzeylar, ko‘priklar va yo‘llar qurilmoqda. Toshkentni dunyoning eng go‘zal poytaxt shaharlari sirasiga kirgazish mumkin.

## SAMARQAND

Samarqand dunyoga juda mashhur shaharlar qatoriga kiradi. U 2750-yildan ortiq tarixga ega. Buyuk Amir Temur davrida Samarqand dunyoning eng muhtasham shaharlaridan biriga aylandi. Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand dunyoning eng yirik fan va madaniyat markazi edi.


Qadimi Registon maydoni, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohizinda, Bibixonim maqbarasi shaharning ko‘rki hisoblanadi. Samarqand shahriga tomosha qilish uchun har yili millionlab sayyoohlar kelishadi.

Samarqand hozirda ham O‘zbekistonning yirik ilm-fan markazlaridan biri sanaladi. U yerda universitet, qishloq xo‘jalik, iqtisodiyot, tibbiyot, chet tillari, me’morchilik - qurilish institutlari, o‘nlab kollej va litseylar faoliyat yuritmoqdalar. Shaharning qiyofasi kundan-kun ko‘rkamlashib boqmoqda. Tarixiy obidalar tamirlanib, zamonaviy binolar va inshoatlar bilan uyg‘nlik kasb etib bormoqda.



“Go‘ri Amir” maqbarasi

## “REGISTON” MAQBARASI



## SAMARQAND KO‘CHALARI




## BUXORO



**Buxoro** — O‘zbekiston Respublikasining qadimgi shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. Buyuk ipak yo‘lida yirik tijorat markazlaridan bo‘lgan. O‘zbekistonning janubiy-g‘arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan. Toshkentdan 616 km uzoqda. Aholisi 264 ming kishi (2001).

Hozirgi kunda Buxoro shahrida 30 dan ortiq yirik sanoat korxonasi mavjud. Korxonalarda asosan mahalliy xom ashyo qayta ishlanadi. Ayrim korxonalar gaz va neft sanoati hamda qishloq xo‘jaligiga xizmat qilishga ixtisoslashgan. Buxoro

to‘qimachilik kombinati (“Buxoroteks”), qorako‘l zavodi, zardo‘zlik, pillakashlik fabrikalari, paxta, yog‘ ekstraksiya, vino, g‘isht, remontmexanika zavodlari, un, go‘sht, uysozlik kombinatlari, poyabzal, tikuvchilik fabrikalari hamda hunarmandchilik tarmoqlari ishlab turibdi.



Shaharda 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda qurilgan qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatadi: «BuxTel» (Isroil) mayonez, «OmegaSitora» (Gretsiya) mo‘yna buyumlari, «GufikAvitsenna» (Hindiston) dori-darmon, «Marmar» (AQSH) qurilish materiallari ishlab chiqaradi. 1996-yilda Buxoroda Koreya Respublikasida ishlab chiqarilgan telefon stansiyalari o‘rnatildi.


## XIVA



Aholisi 89,5 ming kishi (2017). Shaharning qadimgi qismidagi juda ko‘p arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Ichان-Qal’a sharqning ekzotik shahar timsolini o‘zida saqlab qolgan afsonaviy shahardir.

**Xiva** – Xorazm viloyati markazidagi shahar. O‘zbekistonning shimoliy g‘arbida, viloyatning janubida, Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40 km janubda, 95 m balandlikda joylashgan. Shahar yonidan Polvonyop kanali o‘tgan. Yaqin temir yo‘l tansiyasi – Urganch (30 km). Maydoni 0,08 ming km<sup>2</sup>.

## XIVA KO‘CHALARIDA TUNGI MANZARA



**XIVA. ICHAN QAL’A**



**ICHAN QAL'A KO'CHALARIDA**



**XIVA. ICHAN QAL'A XARITASI**



## **FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. G.Rixsiyeva, M.Abdurahmonova, M.Qalandarov O'zbek tili. (Intensiv kurs - jadvallarda) Toshkent 2013. 88b.
2. G.Rixsiyeva, M.Abdurahmonova O'zbek tili. Toshkent 2014.251 b.
3. G.Rixsiyeva, M.Abdurahmonova O'zbek tili. Toshkent 2020.224b.

## MUNDARIJA

1 – Dars .....	6
2 – Dars .....	29
3 – Dars .....	35
4 – Dars .....	48
5 – Dars .....	64
6 – Dars .....	80
7 – Dars .....	85
8 – Dars .....	97
Bilimlaringizni sinab ko‘ring .....	100
O‘zbekiston bo‘ylab sayohat.....	116
Foydalanish uchun adabiyotlar ro‘yxati	125

## **QAYDLAR UCHUN**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## **QAYDLAR UCHUN**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

*SHIRIN SODIQOVA*

**O'ZBEK TILINING INTENSIV  
KURSI**

**(BOSHLANG'ICH DARAJA)**